

ESG PRINCIPLES - A DRIVER OF SUSTAINABLE REGIONAL DEVELOPMENT AND BUSINESS TRANSFORMATION

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES

 <https://timeedu.uz/>

 24.10.2025 y.

2-TO'PLAM
2-MAXSUS SON/2025



“ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzuida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar va tezislari to‘plami. -T.: TMII, 2025. – 752 bet.

Ushbu to‘plamda mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish, raqamli iqtisodiyot sharoitida mavjud sanoat ishlab chiqarishni raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish orqali ishlab chiqarish sanoatini “drayver” sohaga aylantirish istiqbollari hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot materiallari keltirilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va keltirilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tanqidiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Сборник научных статей и тезисов Международной научно-практической конференции на тему «Принципы ESG – драйвер устойчивого развития регионов и трансформации бизнеса». – Т.: ТМII, 2025. – 752 с.

В сборнике представлены материалы научных исследований, посвященные устойчивому экономическому развитию нашей страны, диверсификации производства, адаптации к изменению климата и смягчению его последствий, повышению эффективности природопользования, обеспечению устойчивого развития регионов и промышленных предприятий на основе принципов ESG, внедрению эффективных экономических механизмов поддержки «зеленой» экономики в регионах, трансформации деятельности крупного и среднего бизнеса и повышению его конкурентоспособности, управлению отходами и развитию циклической экономики на промышленных предприятиях, охране окружающей среды на основе «зеленых» технологий, искусственному интеллекту, перспективам превращения обрабатывающей промышленности в «драйверную» отрасль за счет ускорения процессов цифровой трансформации действующего промышленного производства в условиях цифровой экономики, а также различным направлениям обеспечения устойчивого экономического роста.

Авторы сами несут ответственность за содержание представленных в сборнике материалов, достоверность содержащихся в нем статистических данных и представленных нормативно-правовых документов, а также за критические высказывания и предложения.

Tahrir hay’ati: i.f.n., dotsent Sh.K. Narbayev

i.f.n., professor I.S. Xotamov

i.f.d., professor Sh.I. Alibekov

i.f.d., professor V.P. Kuznetsov

i.f.f.d., dotsent N. Nosirova

i.f.f.d., dotsent D. Mamasoatov

assis. G. Axmedova

assis. A. Qudratxo‘jayev

Taqrizchilar: i.f.d., professor N.M. Maxmudov

i.f.d., professor A.A. Yadgarov

KIRISH SO‘ZI

ASSALOMU ALAYKUM, HURMATLI XALQARO ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLAR!

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti hamda O‘zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashi tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda qutlashdan mamnunmiz!

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz “ESG tamoyillari – hududlarni barqaror rivojlantirish va biznesni transformatsiyalash drayveri” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazmoqdamiz. Bugungi anjumanning asosiy maqsadi mamlakatimizda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ESG tamoyillari asosida hududlar va sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarda “yashil” iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning samarali iqtisodiy mexanizmlarini joriy qilish, yirik va o‘rta biznes korxonalari faoliyatini transformatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirish, sanoat korxonalarida chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish, “yashil” texnologiyalar, sun’iy intellekt asosida atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chiqur tahlil qilgan holda ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan qaror va farmonlar, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu anjuman mavzusining naqadar dolzarbligini anglatadi. Yurtboshimiz tomonidan 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi hamda ushbu yo‘nalishda qabul qilingan Davlat dasturida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda ma’lum ma’noda anjumanning ham o‘z hissasi bo‘ladi deb umid qilamiz.

Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

Ilmiy samaradorlik – anjumandan kutilayotgan ilmiy-amaliy natija mamlakatimiz hududlarida barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, sanoat korxonalarining atrof-muhitga bo‘lgan e’tiborini yanada kuchaytirish, biznes strategiyalarini takomillashtirish, shu bilan birga hududlar darajasida barqaror rivojlanishni amalga oshirish darajasini tahlil qilish, “atrof-muhit, jamiyat, boshqaruv” (ESG) tamoyillariga mos holda faoliyat ko‘rsatishlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlarini tahliliy o‘rganish asosida olingan natijalarni umumlashtirib ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ijtimoiy samaradorlik – muhokama qilinadigan masalalarning har birida ijtimoiy samara alohida o‘rin egallaydi. Chunki ESG-tamoyillarining asosiy xususiyati ham ijtimoiy sohaga yuqori darajada e’tibor qaratilishidadir. Shu jihatdan ijtimoiy samarani iqtisodiy jihatdan baholash, bu yo‘nalishda mavjud amaliyotlarni ilmiy tahlil qilishning konseptual yondashuvlarini ishlab chiqishga, hududlarda va biznes sohasida izchil islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyatni rivojlantirish, aholining turmush darajasini yaxshilash, barqaror daromad manbalarini shakllantirish, tabiiy resurslar tejamkorligiga erishish asosida kelajak avlod uchun zahiralarini saqlab qolish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy samaradorlik - iqtisodiy faoliyatning faol ishtirokchilaridan biri ishlab chiqarish korxonalaridir, ular tomonidan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida sezilarli darajada uglerod izi qoldiriladi. Shaffof va ekologik toza ma’lumotlarni taqdim etish atrof-

muhitni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya qilish uchun zarurdir. Iqtisodiy samaradorlik jihatidan mavzu doirasida muhokama qilinadigan har bir masala katta ahamiyatga ega. Birinchidan, sohada qonunchilik bazasini mustahkamlash; ikkinchidan, korxonalarda ESG tamoyillarini joriy yetishning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubiyotini ishlab chiqish; uchinchidan, hududlarning barqaror rivojlanishi uchun mavjud salohiyatini baholash va shu asosda sohalarni diversifikatsiya qilish imkoniyatining vujudga kelishi, to'rtinchidan, korxona va tarmoqlarni rivojlantirishda "yashil" investitsiyalarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanishga keng yo'l ochiladi.

Albatta bunday o'zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo'shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o'ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o'rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o'qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo'lga qo'yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o'quv jarayonlarida, ta'lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o'z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko'nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanni o'tkazishda hamkorlik qilayotgan O'zbekiston Ekologik Partiyasi Markaziy kengashiga, anjumanda ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, BMT ning UNDP loyihasi vakillariga, Federal davlat byudjeti oliy ta'lim muassasasi Kozma Minin nomidagi Nijniy Novgorod davlat pedagogika universiteti, Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Shimoliy-Kavkaz instituti (filiali), Umumrossiya davlat adliya universitetining (VGUYU) Rostov instituti (filiali), Kazpotrebsoyuz Karaganda universiteti, Kyungdong Universiteti (Koreya Respublikasi), tashkilot va korxonalarining mutaxassislari, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarga o'z minnatdorchiligimizni izhor qilamiz.

Bugun sizlarning e'tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Biz bu jarayonda, o'z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g'oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo'ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo'lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori

X. Axmedov

MUNDARIJA / ОГЛАВЛЕНИЕ

I SHO‘BA. IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH, ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH, IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH VA ULARNI YUMSHATISH, TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	11
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARINI XALQARO STANDARTLAR TIZIMIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI	
Abdulloyev A.J., N.K.Sharapova	11
АНАЛИЗ ГОТОВНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ К ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ УПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВЫМ ПРЕДПРИЯТИЕМ И РЕАЛИЗАЦИИ ESG-КОНЦЕПЦИИ	
Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.	23
ЭКОНОМИКО-ПРАВОВОЙ КОНТРОЛЬ КАК МЕТОД ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ	
Алибеков Ш.И.	33
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ТАРКИБИНИ БОЗОР КОНЪЮНКТУРАСИ ЎЗГАРИШИГА МОС ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	
Чариев К.А., Абдулазизов Ш.А.	37
BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL ENERGIYA TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI	
Asamxodjayeva S.Sh.	48
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	56
МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТЬЮ В КОМПАНИЯХ	
Киясов Б.Н.	60
РАЗРАБОТКА И ВНЕДРЕНИЕ СИСТЕМЫ КРІ ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬЮ СОТРУДНИКОВ НА ПРЕДПРИЯТИИ	
Ўқбар Айдын	66
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
Rashidov J.X.	72
“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”	
Alimov O.S.	82
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI MAKROIQTISODIY BARQAROR RIVOJLANTIRISH TANHILI	
Nazirova S.X.	89
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ПРОИЗВОДСТВА ОДЕЖДЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	
Ахмедова Г.А.	99
ОПТИМИЗАЦИЯ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ В НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ «ГРУППА ГАЗ»	
Лаврентьева Е.В., Пахомичева А.С.	107
БЕРЕЖЛИВОЕ ПРОИЗВОДСТВО КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ МАШИНОСТРОЕНИЯ	
Лаврентьева Е.В., Султанова Л.Л.	113
ТЕНДЕНЦИИ И ПРОБЛЕМЫ РОССИЙСКИХ РЕГИОНОВ ПО ВНЕДРЕНИЮ ESG – СТАНДАРТОВ	
Набоков В.И., Некрасов К.В.	121
ЎЗБЕКИСТОНДА КИРУВЧИ ТУРИЗМНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ЗАРУРАТИ	
Рискулов Р.Б.	125
KORXONADA BREND EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY JIHATLARI	
Sa’dulloyev H.I.	134

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIRI VA “RAQAMLI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR TAHLILI	
Sharipova Sh.B.	140
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	
Sharipov I.B.	147
РАЦИОНАЛЬНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ ТЕРРИТОРИИ ДЕХКАНСКИХ ХОЗЯЙСТВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ	
Ашуров А.Ф.	155
II SHO’BA. “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR, SUN’IY INTELEKT VA ENG YAXSHI TEXNOLOGIYALAR (BAT) ASOSIDA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH	164
OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYA QILISH YO’LLARI	
Yuldashev I.B.	164
ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ «УНИВЕРСИТЕТ 4.0»: ПОДГОТОВКА КАДРОВ ДЛЯ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ В УСЛОВИЯХ НИЗКОУГЛЕРОДНОГО ПЕРЕХОДА	
Кузнецова С.Н., Цыбуцинина И.Е., Фролов Ю.С., Горев Н.А.	168
SUN’IY INTELEKT VA REAL VAQT TIZIMLARI ASOSIDA HUDUDIY AVTOMOBIL YO’LLARI MUHANDISLIK INSHOATLARINI LOYIHALASH JARAYONINI MODELLASHTIRISH	
Norinov M.U., Zikrayev A.A.	177
REAL VAQT TIZIMLARI VA SUN’IY INTELEKT ASOSIDA EKOLOGIK MONITORINGNI AVTOMATLASHTIRISHNING ILMIY-ASOSIY YO’NALISHLARI	
Ergashev O.M.	186
ИКЛИМ ЎЗГАРИШЛАРИ ШАРОИТИДА АГРАР СОҲАНИ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНТИРИШДА СУҒУРТА МЕХАНИЗМИНИНГ РОЛИ	
Вахобов А.Р.	195
ИНСОН ВА АТРОФ-МУҲИТ УЙҒУНЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ.	
Йўлдошев Н.Қ.	202
SUN’IY INTELEKTDAN ATROF-MUHITNI MUHOFAZALASHDA FOYDALANISH	
Nasriddinov I.X., Tulyaganov E.J.	209
O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZ SHAXSLARNING IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIK IMKONIYATLAR	
Isayev K.A., Qurbanov A.G‘.	215
ЧОРВАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИ ВА УЛАРГА ХИЗМАТ КЎРСАТУВЧИ СУБЪЕКТЛАР ЎРТАСИДА КООПЕРАЦИЯ МУНОСАБАТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АҲАМИЯТИ	
Худайбердиев Ў.Э.	221
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA TIZIMI RIVOJLANISHI SHAROITIDA BIZNESNI BOSHQARISH VA TASHKIL QILISH	
Kambarova Sh.M.	228
BARQAROR INVESTITSİYALAR VA ESG ME’ZONLARI: NAZARIY TAHLIL	
Maxmasobirova N.U.	235
“O‘ZBEKISTON SANOAT TARMOQLARIDA ESG TAMOIYLLARIGA ASOSLANGAN BOSHQARUV MECHANIZMLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH”	
Rusatamov Z.X.	241
THE ROLE OF ESG PRINCIPLES IN ATTRACTING INSTITUTIONAL INVESTORS IN CORPORATE GOVERNANCE	
Sadikova M.A.	249
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O‘RNI	
Daminova O.M.	254
КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА	
Нарзуллаева Г.С., Сайфуллаева М.И., Носирова Н.Д.	262
YASHIL TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELEKTNING SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI	
Yakubova U.A.	278

HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY–INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Qo‘chqorova M.U.	284
INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI	
Qurbanov A.G‘.	291
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI	
Murtazaev O.O.	298
SANOAT KORXONALAR BARQAROR RIVOJLANISHINING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI	
Ismatulloeva M.F.	304
TRANSPORT XIZMATLARINI IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA VAZIFALARI	
Karimova Sh.U.	311
ФИНАНСОВОЕ ОЗДОРОВЛЕНИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ФИНАНСИРОВАНИЯ АГРОБИЗНЕСА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ	
Адиллов Ш.Ш.	315
III SHO‘BA. ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA HUDUDLAR VA SANOAT KORXONALARINING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASH YO‘NALISHLARI.....	325
“SANOAT-5.0” VA BARQARORLIK: ASOSIY TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR	
Xotamov I.S., Qudratxo‘jayev A.K.	325
ФИНАНСОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	
Мырзалиева Г.А., Байкенжеева Д.Б.	334
QISHLOQ XO‘JALIGIDA RESURSLARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI	
Asamxodjayeva Sh.Sh., Qodirov S.Q.	341
ESG TAMOIYILLARI HUDUDIY IQTISODIY SIYOSATDA: BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI PARADIGMASI	
Zaynutdinov I.S.	348
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA SANOAT CHIQINDILARINI QAYTA ISHLASHNING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA‘SIRI	
Yusupov U.M.	353
AGLOMERATSIYALARNING “YASHIL” IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA‘SIRI	
Mardonov Sh.	362
O‘ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT SAMARADORLIGIGA EKO-MARKETING TA‘SIRINI TAHLIL QILISHDA SUN‘IY INTELLEKT VA MASHINAVIY O‘RGANISHGA ASOSLANGAN YANGI EKONOMETRIYA YONDASHUVI	
Usmonova Diyora Mahmud qizi	367
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATNI TUTGAN O‘RNI.....	379
Matchanova Ma‘rifat Ikramovna.....	379
BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH JARAYONIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	
Meyliqulov Sh.X.	384
AVTOMOBILSOZLIKDA MAHALLIYLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHDA IKKINCHI DARAJALI YETKAZIB BERUVCHILARNING O‘RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI	
Qobilov R.Sh.	388
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИМИ РЕСУРСАМИ В КОМПАНИЯХ	
Аділ Ф.С.	392
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МОДЕЛЕЙ И МЕТОДОВ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ В КОМПАНИЯХ	
Жолдасова А.Б.	397
ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ РАЗРЕШЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫХ КОНФЛИКТОВ	
Кемпірәлі Е.Қ.	404
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ: ШАГИ К ИХ АВТОМАТИЗАЦИИ	
Пернебаев Е.Б.	409
ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОРПОРАТИВНЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ НА ПРЕДПРИЯТИИ	

Рахатова Ж.Н.	414
HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-INSTITUTSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO'NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI	
Musulmonova Sh., Hikmatov M.	422
SANOAT KORXONALARIDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING MILLIY VA XORIJIY TAJRIBASI	
Toxirov J.M.	426
GREEN CAR: QISHLOQ XO'JALIGIDA NAZORATNI YENGILLASHTIRUVCHI AQLLI ROBOT	
Qurbonov Sh.B.	434
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINING TAHLILI	
Baxromov A.B.	437
XALQARO AUDIT STANDARTLARIGA MUVOFIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVLARINI YTKAZISH MASALALARI	
Ahmadjonov A.K.	443
ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ ҚИЛИШ: ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАР, ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР ИНТЕГРАЦИЯСИ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	
Ashurov Z.A.	448
IV SHO'BA. KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI TRANSFORMATSIYALASH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	459
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI EKSPORT FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Mamasoatov D.R.	459
РЕСТРУКТУРИЗАЦИЯ В СФЕРЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА	
Abduraimova N.P.	464
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI	
Suyunov Y.B.	479
АРАБСКАЯ РЕСПУБЛИКА ЕГИПЕТ НА ПУТИ К УСТОЙЧИВОМУ ЭКОНОМИЧЕСКОМУ РОСТУ	
Ziyadullaeva L.C.	487
THE IMPACT OF THE CHINA-KYRGYZSTAN-UZBEKISTAN RAILWAY ON UZBEKISTAN'S ECONOMIC DEVELOPMENT: MECHANISMS, EFFECTS, AND POLICY RESPONSES	
Ye Maoqing.	492
XORIJIY INNAVATSION INVESTITSİYALARNI JALB ETISH DOLZARBLIGI	
Tulyaganov E.J., Ubaydullayeva G.E.	502
QURG'OQCHIL MINTAQALARDA KICHIK AGROBIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	
Qulliyev O.A.	507
BANKLARNING MOLİYAVIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KAPITAL VA AKTIVLAR RENTABELLIGINING AHAMIYATI	
Alimjanova D.S.	516
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИЯМИ В БИЗНЕС-СФЕРЕ	
Raxymjanova A.A.	519
MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI	
Abdvaliyev Sh.X.	524
SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI	
Toshtemirov S.G'.	534
INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	
Abdufattoxova H.	539
AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR	
G'ulomov X.A.	545

APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES	
Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T.	548
ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.	
Фарходова Ш.Ш.	554
СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК	
Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б.	557
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ	
Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д.	565
O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR	
Vahangurov O.O.	571
O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI	
Luqmanov B.M.	577
KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH	
Arziyev S.	585
V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI	590
SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA	
Sobirov A.A.	590
АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ	
Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж.	597
ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ	
Ким Л.Н., Елтаев Н.К.	606
КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ	
Ремизова И.В.	614
TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI	
Shodiyev Sh.S.	620
ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ	
Усманова Ю.	623
YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI	
Primov S.F.	632
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ	
Хувайдуллаева И.Х.	638
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
Primov S.F.	642
ТИЖОРAT БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ	
Хусанбоев А.Ғ.	647
ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ	
Сайдуллаев Ш.	653
РАНВАР КАДРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	
Olimov S.A.	660
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHİK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI	
Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A.	667
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ	

Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O.	672
HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	
Toshboyev M.M.	680
QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI	
Yuldasheva D.K.	689
O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI	
Mamatov M.N.	699
RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI	
Matchanov T.M., Matchanova M.I.	703
AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI	
Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R.	709
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA‘SIRINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	
Tursunqulov Sh.R.	715
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI	
Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M.	722
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH	
Hasanov H.X.	727
SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.	
Arziev Sh.R.	735
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI	
Axmedova D.B.	741

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI

Daminova O'g'iloy Mirzaqul qizi

TMII "Biznes boshqaruvi va moliya" kafedrası asisstanti

Email: daminovaogiloy@gamil.com

Orcid: 0000-0002-2936-2182

Annotatsiya. Ushbu maqolada iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat mahsulotlari bozorini barqaror rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqolada O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan diversifikatsiya siyosati statistik ma'lumotlar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy diversifikatsiya, oziq-ovqat bozori, iqtisodiy islohotlar, qishloq xo'jaligi sektori, oziq-ovqat sanoati.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль и значение экономической диверсификации в устойчивом развитии рынка продовольственных товаров. В работе рассматриваются проводимые в последние годы в Республике Узбекистан экономические реформы, направленные на обеспечение продовольственной безопасности и повышение экспортного потенциала, а также анализируется политика диверсификации на основе статистических данных.

Ключевые слова: экономическая диверсификация, продовольственный рынок, экономические реформы, сельскохозяйственный сектор, пищевая промышленность.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the role and significance of economic diversification in the sustainable development of the food products market. The study examines the recent economic reforms implemented in the Republic of Uzbekistan aimed at ensuring food security and increasing export potential, as well as analyzes the country's diversification policy based on statistical data.

Keywords: economic diversification, food market, economic reforms, agricultural sector, food industry.

Kirish

So'nggi yillarda jahon xo'jalik tizimida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqaror rivojlanishini ta'minlash masalasi global iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Iqlim o'zgarishi, geosiyosiy beqarorlik, energetika resurslari narxining o'zgaruvchanligi va logistika zanjirlarining uzilishi kabi omillar oziq-ovqat ta'minotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sharoitda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ya'ni ishlab chiqarish tarmoqlari, eksport yo'nalishlari va investitsiya oqimlarini kengaytirish, har qanday inqiroz holatlarida iqtisodiy tizimning moslashuvchanligini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatadiki, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda iqtisodiy diversifikatsiya siyosatiga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, 2020-2024 yillar davomida oziq-ovqat sanoati ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga o'sib, uning sanoat tuzilmasidagi ulushi o'rtacha 12 foiz atrofida shakllandi. Meva-sabzavot, go'sht va sut mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining soni ko'paygani, eksport

geografiyasining kengaygani ham ushbu yo‘nalishda ijobiy natijalarni namoyon etmoqda.

Diversifikatsiya jarayonlari nafaqat ishlab chiqarish tarkibini yangilash, balki yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot turlarini yaratish va hududlar bo‘yicha resurslardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Shu jihatdan, oziq-ovqat bozorining raqobatbardoshligini oshirish, ichki bozorni muvozanatli rivojlantirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish uchun iqtisodiy diversifikatsiya strategik ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiyot tarmoqlarida oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda iqtisodiy diversifikatsiyaning o‘rnini ochib berishga doir ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu masalalar mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan keng o‘rganilgan, va shu sohada o‘zining muhim ilmiy ishlarini taqdim etgan bir qator taniqli olimlar mavjud. Ulardan Primov, A., Rustamova, I., Musaev, I., Khakimova, K., Nuretdinova, M., Jalolova, M kabi olimlarning ishlarini keltirish mumkin. Ularning ilmiy izlanishlari oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda iqtisodiy diversifikatsiyaning o‘rni bilan masalalarga alohida e‘tibor qaratgan Ularning fikricha, iqtisodiy diversifikatsiya mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning barqarorligini oshiradi, oziq-ovqat ta‘minotidagi tavakkalchiliklarni kamaytiradi va bozor infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.[1]

Rustamova va boshqalar Orol mintaqasida uzoq muddatli crop-diversification tadqiqotlari orqali mono-ekin tizimlarining (xususan paxta) iqtisodiy va ekologik cheklovlarini ta‘kidlaydilar, diversifikatsiyaning daromad va risklarni kamaytirishdagi ijobiy ta‘siri empirik ma‘lumotlar bilan tasdiqlangan. Ushbu maqola diversifikatsiyaning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini ko‘rib chiqadi. Mualliflar diversifikatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun siyosiy chora, suv boshqaruvi, konservatsion dehqonchilik va malaka oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. O‘zbekistanda avvalgi monokultura tizimidan diversifikatsiyaga o‘tish zarurligini ta‘kidlaydi [2]

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy diversifikatsiya oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarishning tarmoqlararo muvozanatini ta‘minlash, importga qaramlikni kamaytirish va mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ular oziq-ovqat mahsulotlarining bir qismini import qilishni ham (oqilona hajmda) muhim deb hisoblaydilar, chunki bu bozorning diversifikatsiyasini va barqarorligini ta‘minlashga yordam beradi.

Bundan kelib chiqadiki, yuqorida keltirilgan ta‘riflar turli ilmiy ishlar doirasida shakllantirilgan va ularning har biri oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishda

iqtisodiy diversifikatsiyaning o'ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan. Har bir olim tomonidan taqdim etilgan ta'riflar o'zgacha nuqtai nazarga asoslangan bo'lib, oziq-ovqat bozorining rivojlanishi va uning samaradorligini ta'minlashga oid muhim tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqot ishida mavzuning dolzarbligi, mahalliy va xorijiy mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan ilmiy tadqiqotchilar va olimlar tomonidan oziq-ovqat bozorining mazmuni va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar haqida ilgari surilgan nazariyalar, fikr-mulohazalar va o'ziga xos xususiyatlar batafsil o'rganilib, tahlil qilingan. Tadqiqotda, shuningdek, oziq-ovqat bozorini samarali rivojlantirishda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning ahamiyati keng ochib berilgan. Bu maqsadga erishish uchun oziq-ovqat bozoriga ta'sir qiluvchi omillar nazariy jihatdan chuqur tahlil qilingan va iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun bir qancha chora-tadbirlar taklif qilingan. Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya metodlari, statistik tahlil, dinamik qiyosiy tahlil tizimli va mantiqiy tahlil hamda iqtisodiy tahlil usullaridan samarali foydalanilgan. Ushbu yondashuvlar yordamida bozorning rivojlanish jarayonlarini yanada chuqurroq tushunish va uni amaliyotda qo'llash mumkin bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarishning tarmoqlararo diversifikatsiyasi yuqori bo'lgan hududlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri ijobiy bog'liqlik mavjud.

Muhokama va natijalar

Jahon iqtisodiyoti so'nggi o'n yilliklarda tez sur'atlarda o'zgarib, yangi global chaqiriqlarga duch kelmoqda. Xususan, iqlim o'zgarishi, pandemiyalar, geosiyosiy tangliklar va logistika tizimlaridagi uzilishlar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayoni, ayniqsa oziq-ovqat sektorida, barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2017-yildan boshlab iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida modernizatsiya va diversifikatsiya siyosati izchil amalga oshirilib kelmoqda. Xususan, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirish yo'nalishida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada, meva-sabzavot eksporti hajmi 2020-yilga nisbatan 1,6 barobar oshgani, qayta ishlangan mahsulotlar ulushi esa 28 foizdan 36 foizgacha ko'tarilgani kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat bozorida resurslardan samarali foydalanish va eksport tarkibini kengaytirishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Iqtisodiy diversifikatsiya - bu milliy iqtisodiyotda tarmoqlar, mahsulot turlari, ishlab chiqarish va eksport yo'nalishlarining ko'pligini ta'minlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish jarayonidir. Hozirgi globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivoji bevosita iqtisodiy diversifikatsiya bilan bog'liq. Chunki bir yo'nalishga qaramlik qishloq xo'jaligida xavf-xatarlarni kuchaytiradi va oziq-ovqat xavfsizligini zaiflashtiradi.

Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali milliy iqtisodiyotning barqarorligini oshirish, tarmoqlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash va tashqi omillarga nisbatan sezuvchanlikni kamaytirishga erishiladi. Diversifikatsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy faoliyatni faqat bir yoki ikki tarmoq bilan cheklab qo'ymasdan, ko'p tarmoqli ishlab chiqarish tuzilmasini shakllantirish orqali iqtisodiyotning ichki barqarorligini mustahkamlashdan iborat.

Oziq-ovqat bozori iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida diversifikatsiya jarayonida muhim o'rin tutadi. Chunki ushbu soha nafaqat aholining asosiy iste'mol ehtiyojlarini qondiradi, balki qishloq xo'jaligi, qayta ishlash, logistika, savdo va xizmat ko'rsatish kabi boshqa tarmoqlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu bois oziq-ovqat sektorini rivojlantirish orqali butun iqtisodiyotning tarkibiy o'sishi va tarmoqlararo integratsiya jarayoni jadallashadi.

Oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi sektorlarini diversifikatsiya qilish orqali:

- mahalliy ishlab chiqarish kuchayadi;
- ish o'rinlari ko'payadi;
- importga bo'lgan qaramlik kamayadi.

O'zbekiston sharoitida iqtisodiy diversifikatsiya jarayoni, xususan, oziq-ovqat sanoatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, mahalliy brendlarni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali amalga oshirilmoqda. Natijada, iqtisodiy o'sishning yangi drayverlari shakllanib, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining hajmi ortib bormoqda.

Bundan tashqari, diversifikatsiya oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ishlab chiqarish manbalarining ko'pligi, mahsulot turlarining xilma-xilligi va bozorning muvozanatli rivojlanishi importga qaramlikni kamaytiradi hamda ichki narxlarning keskin o'zgarishiga yo'l qo'ymaydi. Shu tariqa, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish oziq-ovqat bozorining barqaror va raqobatbardosh shaklda rivojlanishini ta'minlaydi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2024-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining 19,2 foizi qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish strukturasida oziq-ovqat sanoati ulushi 11,7

foizni tashkil etib, jami 103,7 trillion so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Jahon bankining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, O'zbekiston oziq-ovqat turlarini 70 dan ortiq mamlakatga eksport qilmoqda, bu esa eksport diversifikatsiyasining yuqori darajasini ko'rsatadi. Xususan, 2020-2024 yillar davomida meva-sabzavot eksporti 1,6 barobar oshgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorida diversifikatsiyaning asosiy samaralari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- raqobat muhitining kuchayishi (turli ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat narxlarning barqarorlashishiga olib keladi);
- import o'rnini bosish (yangi tarmoqlarning rivoji ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta'minlaydi);
- eksport salohiyatining kengayishi (yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi);
- resurslardan samarali foydalanish (yer, suv, energiya va mehnat resurslari oqilona taqsimlanadi).

Diversifikatsiya dasturlari asosida 2023-yilda 60 ming gektar paxta maydonlari oziq-ovqat ekinlariga o'tkazildi, natijada sabzavot va poliz mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 12,4 foizga oshdi.

Oziq-ovqat bozori diversifikatsiyasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan uzviy bog'liq. Qishloq xo'jaligi, logistika, energetika va xizmat ko'rsatish sohalaridagi o'zgarishlar oziq-ovqat ta'minotining samaradorligini bevosita belgilaydi. O'zbekiston sharoitida diversifikatsiya ikki asosiy yo'nalishda kechmoqda:

1. Tarmoqlararo diversifikatsiya - ishlab chiqarish va qayta ishlash segmentlari o'rtasidagi balansni ta'minlash;

2. Hududiy diversifikatsiya - har bir viloyatda resurs salohiyatiga mos ishlab chiqarish ixtisoslashuvini shakllantirish.

FAO ma'lumotlariga ko'ra, diversifikatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda oziq-ovqat tanqisligi xavfi 25-30 foizga past bo'ladi. O'zbekiston bu borada Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab, 2024-yilda oziq-ovqat mustaqilligi indeksi bo'yicha 0,86 ko'rsatkichga erishdi.

Biroq muammolar ham mavjud: ayrim hududlarda transport-logistika infratuzilmasi yetarlicha rivojlanmagan; mahsulotlarni saqlash va sovitish tizimlari eskirgan; eksport bozorlarida sertifikatlash talablari murakkab. Shu bois diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- mahalliy xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish;
- hududiy agrologistika markazlarini tashkil etish;

- qayta ishlash korxonalariga soliq imtiyozlari berish;
- raqamli texnologiyalar asosida oziq-ovqat tarmoqlarini boshqarish tizimini yaratish.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda diversifikatsiya muhim rol o'ynaydi. Masalan:

- AQShda 1980-yillarda agrar diversifikatsiya dasturlari fermerlarni bir nechta mahsulot turlarini yetishtirishga rag'batlantirdi;
- Janubiy Koreya oziq-ovqat sanoatini yuqori texnologiyalarga asoslangan qayta ishlash tizimi orqali diversifikatsiya qildi;
- Turkiya agrar turizm va organik mahsulot eksportini rivojlantirib, qishloq xo'jaligi sohasida 5,8% yillik o'sishga erishdi.

O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorida diversifikatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirishning strategik omili sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar, xususan, agroklaster tizimini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish yo'nalishlari bozorni tizimli diversifikatsiyalashga xizmat qilmoqda.

Agroklasterlar faoliyati tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirib, "xomashyo - qayta ishlash - eksport" zanjirining samarali ishlashini ta'minlamoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda 200 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritib, ular jami qishloq xo'jaligi mahsulotlarining qariyb 32 foizini yetishtirgan. Ushbu tizimni yanada kengaytirish 2025-2030- yillar oralig'ida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmini 18-20 foizga oshirish imkonini beradi. Bu esa mamlakatning importga qaramligini kamaytirib, ichki iste'mol bozorini barqarorlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalar - raqamli agroxizmatlar, aqlli sug'orish tizimlari, seleksiya va biotexnologiya yutuqlarini joriy etish ishlab chiqarish unumdorligini oshirish bilan birga, resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beradi. Masalan, tomchilatib sug'orish texnologiyasini keng joriy etish natijasida suv sarfi 30-35 foizga qisqarishi va hosildorlik 20 foizgacha oshishi mumkinligi xalqaro tajribada isbotlangan.

Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish istiqbollari ham diversifikatsiya siyosatining muhim yo'nalishidir. Organik dehqonchilik maydonlarini kengaytirish orqali xalqaro "eco-label" sertifikatiga ega mahsulotlar ulushi ortib bormoqda. 2025-yilga kelib, eksport tarkibidagi ekologik toza mahsulotlar ulushi 12 foizdan 20 foizgacha yetkazilishi rejalashtirilgan.

Hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish esa har bir viloyatning tabiiy-iqlim sharoitidan kelib chiqib ishlab chiqarish turlarini aniqlashni nazarda tutadi. Misol uchun, Surxondaryo viloyatida sabzavotchilik va polizchilik, Farg'ona vodiysida

meva yetishtirish, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Buxoro viloyatlarida esa dukkakli ekinlarni kengaytirish istiqbollari belgilangan. Bu yondashuv resurslardan samarali foydalanish va hududlararo iqtisodiy muvozanatni ta‘minlash imkonini beradi.

Statistik prognozlariga ko‘ra, 2025-yil yakuniga kelib qayta ishlash korxonalarining eksport ulushi 25 foizgacha oshirilishi, umumiy oziq-ovqat eksporti hajmini esa 1,8-2 milliard AQSh dollariga yetkazish kutilmoqda. Bu natijalar iqtisodiy diversifikatsiyaning nafaqat ishlab chiqarish strukturasi, balki tashqi savdo siyosatida ham muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda oziq-ovqat bozorini diversifikatsiya qilish istiqbollari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, eksport tarkibini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirish imkonini beradi. Kelgusida bu jarayonlarni ilmiy asosda rejalashtirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini keng joriy etish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa va takliflar

Iqtisodiy diversifikatsiya oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqarorligini ta‘minlash, importdan qaramlikni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanishga ham xizmat qiladi. Shu bois O‘zbekiston uchun diversifikatsiya - bu faqat iqtisodiy strategiya emas, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishidir.

Diversifikatsiya siyosati ishlab chiqarishning barqarorligini ta‘minlab, eksport tarkibini kengaytiradi, hududlarda bandlikni oshiradi va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. 2020-2024 yillar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston oziq-ovqat sektorida diversifikatsiyani chuqurlashtirish orqali nafaqat ichki talabni qondirish, balki xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ulushini oshirishga erishmoqda.

Kelgusida iqtisodiy diversifikatsiyani yanada kengaytirish, xususan, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va eksport geografiyasini kengaytirish orqali oziq-ovqat bozorining barqaror o‘sishini ta‘minlash mumkin.

Iqtisodiy diversifikatsiyaning oziq-ovqat bozoridagi ahamiyati, avvalo, resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va mintaqalararo iqtisodiy tenglikni mustahkamlashda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarishning tarmoqlar bo‘yicha diversifikatsiyalashuvi nafaqat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi, balki importga qaramlikni kamaytiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va aholining daromad manbalarini kengaytiradi. Bu jarayonlar natijasida O‘zbekistonning qishloq xo‘jaligi sektori yanada innovatsion va eksportga yo‘naltirilgan shaklga aylanmoqda. Oziq-ovqat

mahsulotlari bozorini rivojlantirish uchun iqtisodiy diversifikatsiyalashda quyidagilarga ahamiyat berish tavsiya etiladi:

1. Agroklaster tizimini kengaytirish - xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, klasterlarda qayta ishlash, saqlash va logistika infratuzilmasini rivojlantirish.

2. Hududiy ixtisoslashuvni optimallashtirish - har bir viloyatning tabiiy-iqlim sharoitlari va resurs salohiyatiga mos ekin turlarini tanlash.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish - suv tejamkor sug'orish, raqamli monitoring va agrotexnik modernizatsiyani kengaytirish.

4. Ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish - "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini ishlab chiqarish va eksport siyosatiga joriy etish.

5. Statistik monitoring tizimini takomillashtirish - diversifikatsiya natijalarini aniq raqamlar asosida tahlil qilish, bu orqali siyosiy qarorlar samaradorligini oshirish.

6. Eksport bozorlarini kengaytirish - logistika zanjirlarini qisqartirish, yangi tashqi bozorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy diversifikatsiya O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorining barqaror o'sishi, mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishda strategik omil hisoblanadi. Shu yo'nalishda olib borilayotgan islohotlarning izchil davom ettirilishi mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli barqaror rivojlanish bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Primov, A., & Rustamova, I. (2025). Status and Extent of Crop Diversification Index in Uzbekistan and its Empirical Analysis. Manuscript.

2. Primov, A. (2025). Crop Diversification Analysis at the Farm Level: Empirical Evidence from Different Regions of Uzbekistan. EconStor Preprint.

3. Musayev, I., Khakimova, K., Nuretdinova, M., & Jalolova, M. (2024). Enhancing Sustainable Agriculture through Crop Diversification in Uzbekistan. E3S Web of Conferences.

4. Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». –T.: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12-b.;

5. Karimov M.A. «Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish»./Monografiya. Andijan: «STEP BY STEP PRINT» MChJ, 2021. - 100 b.

6. Gorb O.A., Yasnolob I.A., Protsiuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annalysis of agrarian science 14 (2016) 191-195.;

7. Bobojonov, I., Lamers, J. P. A., Bekchanov, M., Djanibekov, N., Franz-Vasdeki, J., Ruzimov, J., & Martius, C. (2013). Options and constraints for crop diversification: A case study in sustainable agriculture in Uzbekistan. Global Landscapes Forum & Food & Livelihoods.

8. Barmon, B. K. (2025). Crop Diversification and its Impact on Income: Determinants and Extent. Journal (reserved).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ID-9413-son “O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” gi qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.

КОНФУЦИАНСКИЕ ИДЕИ В КОРПОРАТИВНОМ УПРАВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА

Нарзуллаева Гульчехра Салимовна

старший преподаватель, Бухарский государственный университет

Orcid: 0000-0002-7025-8547

Сайфуллаева Мадина Исмамовна

PhD, преподаватель, Бухарский государственный университет

Orcid: 0000-0001-8133-2733

Носирова Наргиза Джамолиддин кизи

PhD, доц. Начальник отдела научных исследований
рейтинга и аккредитаций

Orcid: 0000-0002-4210-1550

Аннотация. В условиях стремительного развития узбекско-китайских экономических отношений и увеличения количества совместных предприятий исследование применения философских принципов конфуцианства в корпоративном управлении приобретает особую практическую значимость для Узбекистана. В исследовании применяется сравнительный анализ эволюции корпоративного управления в Китае и Узбекистане, рассматриваются исторические, культурные и институциональные аспекты формирования гибридных моделей управления в обеих странах. Выявлена структурная схожесть корпоративных систем Китая и Узбекистана, основанная на общей гибридной модели, сочетающей формальные рыночные институты с доминирующей ролью государства. В статье представлена высокая степень совместимости конфуцианских принципов (иерархия, гармония, доверительные отношения) с национальными культурными традициями Узбекистана. Данная схожесть институциональной среды создает конкурентные преимущества для узбекско-китайского делового партнерства. Результаты исследования могут быть использованы для разработки образовательных программ по корпоративному управлению, адаптации лучших практик китайской модели управления и оптимизации работы совместных предприятий.

Ключевые слова. Корпоративное управление, конфуцианство, Узбекистан, Китай, гибридная модель управления, совместные предприятия, экономическое сотрудничество.

Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li

2- TOPLAM

2- MAXSUS SON /2025

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: journals@timeedu.uz

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

Manzilimiz: Toshkent shahar Yakkasaroy tumani
Shota Rustaveli ko'chasi, 114